ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 2,2

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 20.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 20.06.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать. Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998990 377 77 23, +99895 986 07 77

E-mail: philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт: https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 20.06.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

ШАКЕНОВА МАЙГУЛЬ ТУЛЕГЕНОВНА
Прецедентные имена как маркеры культурной памяти в современных медиа Казахстана 7

КОДИРОВА МУКАДДАС ТОГАЕВНА
Синергетическая трансформация узбекского и английского бизнес-дискурса 11

BAYNAZAROV ZOKIR
«Chig'atoy gurungi» va uning o'zbek tilshunosligi tarixidagi o'rni 16

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Disleksiya neyrolingvistik muammo sifatida 22

RAHMATOVA GAVHAR OMONOVNA
«Devoni lug'ati-t-turk» asaridagi jangnoma she'rlar va ularning semantikasi 28

RAHIMOV USMONJON ERGASHEVICH
Pragmalingvistika va unga bog'liq hodisalarni antroposentrik nazariya asosida tadqiq etish 33

ABDULLAJONOVA MADINA TO'LANBOY QIZI
Disgrafiyaga xos xatolarning yoshga bog'liq dinamikasi 39

КАЛДЫГОЗОВА С.Е.
Термины-эпонимы в психологических блог-дискурсах 46

ASADOV ALISHER BAHODIROVICH
Preventiv nutqiy aktlarning lingvopragmatik va sotsiopragmatik jihatlari 39

ERIMMATOVA ZUXRA AZIMBOYEVNA
Qo'lyozmalarda kotiblarning (nusxa ko'chiruvchilarning) eng muhim amallari 54

ELOVA DILRABO QUDRATILLAYEVNA
Normativ matn talqinida sintaktik qamrovning o'rni 60

NORMO'MINOV SHERZOD TO'YCHIYEVICH
O'zbek shevalarida leksik tanlovning yosh omili: avlodlararo qatlamlanish 65

SAMINOV ABDUMALIK INOMJONOVICH
Oksyumoronning sintaktik-stilistik va lingvopoetik xususiyatlari (Shavkat Rahmon she'riyati misolida) 68

FAYZIYEVA AZIZA ANVAROVNA
Axloqiy-hissiy konseptlar: sof hissiy va sof axloqiy konseptlardan farqlanish mezonlari 72

ABDULLAYEV DAVRONBEK DILMUROD O'G'LI
«Maoniy an-nahv» kitobida «na'ti maqtu'» (uzilgan sifat) hodisasi 76

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Ona tili boyligi – madaniy nutqni shakllantiruvchi vosita 79

ИСЛОМОВА ДИЛНОЗА УЙГУН КИЗИ
Понятие и функции социальной рекламы в обществе 82

ASATULLOYEVA MUHAYYO ALISHER QIZI
Til birliklarining pragmalingvistik xususiyatlari: informema va pragmema oppozitsiyasida frazeologik birliklarning o'rni 86

МУНДАРИЖА

MURODULLAYEVA SARVINOZ YORQIN QIZI
Xudoyberdi To'xtaboyev hikoyalarida milliy-madaniy birliklar tarjimasi: milliy koloritni saqlash strategiyalari 90

O'ROQOVA MUBORAK
Sud-tibbiy ekspertiza matnlarining diskursiv xususiyatlari 94

TURSINBAYEVA SHAXLOXON ALIMBAYEVNA
Badiiy matnda sharqona muloqot etiketi va nutqiy strategiyalar 94

XALIQULOVA MUSHARRAF EGAMNAZAR QIZI
Ijtimoiy reklama diskursida til, ma'no va madaniyat munosabati 102

ABDUMUMINOVA DILNOZA XOMIT QIZI
Ingliz tilida holat fe'llarining metaforik kengayishi 105

TURAEVA ORASTA
Ways of expressing irony in the heroic dramas of John Dryden 109

ADABIYOTSHUNOSLIK

RAHMATOVA GAVHAR OMONOVNA,
SOTVOLDIYEV SIROJIDDIN MAXAMMADDIN O'G'LI
«Devonu lug'ati-t-turk» asaridagi she'riy uzindilar badiiyati 116

RAIMOVA SAYYORA ZAITOVNA
Intertekstual birliklarning poetik vazifasi 123

TASHPULATOV MUXRIDDIN RAXMATULLA O'G'LI
Jadid dramaturgiyasining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari 127

FAYZULLAYEVA NIGINA SUR'AT QIZI
Badiiy tafakkurda jinoyat va psixologiya o'zaro aloqadorligining estetik talqini 132

БУРАНОВА ЖАМИЛА АЛИЕВНА
Влияние мифологических мотивов создания и разрушения на сюжет романа 135

МУҲАММАД АБДУЛЛАЕВ
Убайдий ижодида салафлари ижоди таъсири 139

RAMAZON ABDULLAEV
Muizziy qasidalarda lirik mazmun va badiiy mahorat 142

TA'LIM

XALILOVA MUYASSARXON TOLIPOVNA
Bog'lanishli matn yaratish malakasini rivojlantiruvchi zamonaviy metodlar 145

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

TIL BIRLIKLARINING PRAGMALINGVISTIK XUSUSIYATLARI: INFORMEMA VA PRAGMEMA OPPOZITSIYASIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING O'RNI

Asatulloyeva Muhayyo Alisher qizi
Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi

Til insonlar o'rtasidagi muloqot vositasi bo'lib, shuningdek, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda muhim rol o'ynaydi. An'anaviy tilshunoslikda nutq hodisalari ko'pincha faqat grammatik va leksik ma'no doirasida o'rganilgan. Biroq zamonaviy tadqiqotlar tilning ijtimoiy va pragmatik funksiyalarini tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi. Pragmalingvistika til birliklarining nutq jarayonidagi qo'llanishini, ularning kommunikativ niyat va kontekst bilan aloqasini o'rganadi. Shu nuqtayi nazardan sintaktik birliklar tarkibi ikki asosiy komponentga ajratiladi: **informema** va **pragmema**. Bu ikkisi nutqda bir-birini to'ldiradi va tilning funksional boyligini ta'minlaydi.

Jahon tilshunosligida til va jamiyat munosabatlari masalasi sotsiolingvistik doirada keng o'rganilgan. Xususan, V. Labov[1] tilning ijtimoiy differensiyasi va nutq variantlarining jamiyatdagi tabaqalanish bilan bog'liqligini ilmiy asoslab bergan. Kommunikativ kompetensiya nazariyasini ishlab chiqqan D. Hymes[2] esa nutqni ijtimoiy kontekst bilan bog'liq holda talqin qilgan. Jahon tilshunosligining bugungi taraqqiyot bosqichida til va jamiyat, til va madaniyat munosabati, inson ruhiyatining tilga ta'siri, tildan inson bilimlarining voqelanishi kabi masalalar o'rganish ustivor vazifalardan biri sanaladi. Bugungi taraqqiyot bosqichida til va jamiyat, til va madaniyat munosabati, inson ruhiyatining tilga ta'siri, tildan inson bilimlarining voqelanishi kabi masalalar o'rganish ustivor vazifalardan biri sanaladi. Til hodislarini o'rganishga antroposentrik yondashuv badiiy matn tadqiqida ham yangi qarashlarni yuzaga keltirdi. Xarakterli jihati shundaki, tilshunoslikda eng ko'p badiiy matn o'rganishga e'tibor qaratildi. Badiiy matn dastlab kommunikativ, stilistik-funksional aspektlarda, keyinchalik boshqa yo'nalishlarda tadqiq etildi. Jumaladan, rus tilshunosligida G.I. Bogin, Y.A. Chijova, V.P. Belyanin, L.N. Churilina, I.A. Ashirova, N.S. Bolotnova, T.I. Suran, A.A. Yevtyugina, M.V. Shpilman, O.V. Suxareva, D.A. Shukina, Y.N. Karaulov va boshqalarning tadqiqotlari fikrimiz isbotidir.

O'zbek tilshunosligida ham antroposentrik paradigmaning turli fanlar hamkorligida yuzaga kelgan lingvokulturologiya, pragmalingvistika, sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika yo'nalishlarida tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada D. Xudoyberganovaning «O'zbek tilidagi badiiy matnlarning antroposentrik talqini» mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida badiiy matnning lingvokulturologik, psixolingvistik, lingvokongnitiv xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, pragmatika doirasida informema va pragmema tushunchalari olim M.Hakimov[3] tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ilmiy jihatdan asoslab berilgan va rivojlantirilgan. Tadqiqotchining yondashuviga ko'ra, informema nutq jarayonida uzatilayotgan axborotning eng kichik semantik-pragmatik birligi sifatida talqin qilinadi va u, asosan, xabar berish, ma'lumot yetkazish funksiyasini bajaradi. Pragmema esa kommunikativ aktning ijtimoiy-maqsadga yo'naltirilgan, kontekst bilan chambarchas bog'liq bo'lgan pragmatik birligi sifatida qaraladi hamda unda so'zlovchining niyati, baholash munosabati va adresatga ta'sir o'tkazish strategiyasi mujassam bo'ladi.

Ma'lumki, tabiiy fanlarda tadqiqot obyekti sifatida «ideal obyektlar» deb nomlanadigan mavhum nazariy qurilmalar tanlansa, tilshunoslikda ham til tizimining turli sathlariga oid va shu sathlarning asosiy birliklarga bo'la oladigan turli emik birliklarni («fonema, «morfema, «leksema», «sintaksema» hamda «semema», «pragmema», «tekstema») misol sifatida keltirish mumkin[4].

Til aloq-aralshuv vositasi sifatida kishilar o'rtasidagi sotsial munosabatlarni yo'lga soladi. Ayni paytda til birliklarini lingvopragmatik yo'nalishda o'rganish uchun nutqiy akt tushunchasining o'zi yetarli hisoblanmaydi. Nutqiy ta'sir etish va nutqiy kom-

[1] Labov, W. 1966. The Social Stratification of English in New York City. Washington: Center for Applied Linguistics, pp. 240-450.
[2] Hymes, D. 1972. On Communicative Competence. In: J.B. Pride & J. Holmes (Eds.), Sociolinguistics. Harmondsworth: Penguin Books, pp. 269-293.
[3] Hakimov M., Gaziyeva M. Pragmalingvistika asoslari. –Toshkent, 2020. –363 b.
[4] Safarov Sh. Pragmalingvistika. –Toshkent, 2008. – 222 b.

munikatsiya nazariyasining funksional asosga ega bo'lishiga ko'ra sintaktik birliklardagi axborot tarkibi til birligi sifatida ikkiga ajratiladi: 1. Informema. 2. Pragmema. Bular pragmalingvistik birliklar sanaladi. Pragmalingvistik birliklar til birliklari bilan funksional til maydonida to'g'ridan-to'g'ri zidlanishda ko'rinadi[1]. Ya'ni pragmalingvistik nuqtayi nazardan sintaktik birliklar tarkibidagi axborot ikki asosiy komponentga – informema va pragmemaga ajratiladi. Informema nutqning faktik, denotativ mazmunini ifodalasa, pragmema esa nutqning kommunikativ niyati, ta'sir kuchi, baholovchi va ijtimoiy yo'naltirilgan jihatlarini namoyon etadi. Mazkur jarayonda ***frazeologik birliklar (frazemalar)*** alohida o'rin tutadi. Badiiy asarda personajlarning nutqini boyitadigan, ta'sirchanligini ta'minlaydigan asosiy verbal birliklardan biri frazeologizmlardir. Lingvistik jihatdan ikki va undan ortiq leksema o'z ma'no mustaqilligini yo'qotgan holda bir umumiy ma'no markaziga bo'ysunadi. Frazemadan anglashiladigan ma'no uning tarkibidagi leksemalardan anglashiladigan ma'nolarning oddiy yig'indisi bo'lmay, umumlashma, ustma'no , shu bilan birga ko'chma ma'no sifatida gavdalandi. Masalan, *jonini jabborga bermoq* frazemasi «*bor kuchini safarbar qilmoq*» ma'nosini anglatadi, ya'ni bu ma'no *jon, jabbor, bermoq* leksemalari anglatadigan ma'nolarning oddiy yig'indisi emas, balki ma'lum obrazga asoslanadigan umumlashma ko'chma ma'nosidir[2].

Frazeologik birliklar ham xuddi leksemalar kabi oldindan lisonimizda mavjud va bizga ajdodlarimizdan muayyan o'zgarmaydigan struktura holda yetib kelgan. Frazeologizmlar ikki yoqlama lisoniy birlik va mazmunning dialektik birligidan iborat. Frazeologizmning shakliy tomoni so'z (leksema emas) tashkil topadi. Ularning mazmuniy tomoni frazeologik ma'nodir. Frazeologik ma'no o'ta murakkab tabiatli, leksema ma'nosi esa unga nisbatan kengroq va mavhumroq bo'ladi. Frazeologizmlar tilning turg'un, ko'chma ma'noli birliklari bo'lib, ular ko'pincha nafaqat axborot uzatadi, balki kuchli ekspressivlik, baholash va ijtimoiy munosabatni ham ifodalaydi. Shu sababli ular pragmema sifatida faol namoyon bo'lish xususiyatiga ega. Masalan, – *Gaplaringizdan* ***yer yorilmadi, yerga kirmadik.*** *Axir,* ***yeganingiz oldingizda, yemaganingiz ketingizda****-ku*. (U.Hamdam. Muvoznat) Ushbu jumlada frazeologik birlik nafaqat voqelikni tasvirlaydi, balki kuchli emotsional holatni ifodalaydi. Bu yerda «*yer yorilmadi, yerga kirmadik*» iborasi «*uyaltirmoq*», «*yeganingiz oldingizda, yemaganingiz ketingizda*» iborasi «hich narsaga zoriqmaydi» ma'nosida informativ qatlam bilan birga ekspressiv pragmema ham yuzaga chiqqan. Frazeologik birliklarning pragmalingvistik xususiyati ayniqsa sotsiopragmatik kontekstda yaqqol ko'rinadi. Masalan, – ***Peshonam sho'r*** *bo'lmasa,kelib-kelib sizga tegamanmi?..* (U.Hamdam. Muvozanat). Ushbu parchada qo'llangan ibora **baholovchi pragmema** hisoblanib, so'zlovchining ***achinish, hamdardlik yoki salbiy bahosi***ni bildiradi, bu esa ijtimoiy munosabatni ifodalovchi baholovchi pragmema hisoblanadi. Shuningdek, «*yuzini yorug' qilmoq*» kabi frazeologizmlar milliy-madaniy qadriyatlar bilan bog'liq bo'lib, ular orqali jamiyatdagi axloqiy mezonlar va kollektiv tasavvurlar ifodalanadi. Shu jihatdan frazeologik birliklar nafaqat leksik-semantik birlik, balki kuchli pragmatik potensialga ega bo'lgan vosita sifatida qaraladi. Ular nutq jarayonida informemani boyitadi va pragmemani kuchaytiradi, ya'ni oddiy axborotni ijtimoiy, emotsional va ta'sir jihatdan boyitilgan kommunikativ birlikka aylantiradi. Shunday qilib, frazeologik birliklar pragmalingvistik tizimda muhim o'rin egallaydi. Ular informema va pragmema oppozitsiyasida ko'pincha pragmatik komponentni kuchaytiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi va nutqning sotsiopragmatik ta'sirchanligini oshiradi. Shu sababli ularni pragmema sifatida tahlil qilish zamonaviy tilshunoslikda dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Sotsiopragmatik jihatdan frazeologik birliklarning ijtimoiy xoslanishi yosh jihatdan chambarchas bog'liqdir. Bunda turli yosh guruhlaridagi shaxslarning frazeologik birliklarni qo'llashda tafovutlar ko'zga tashlanadi. Xususan, jamiyatda turli sohalarda faol bo'lgan o'rta yosh vakillarining nutqida ijtimoiy muhitdan kelib chiqqan holda frazeologik birliklarning keng qo'llanishi uchraydi. Masalan,

– Muddaoga o'ting endi, nima bo'ldi? Ertalabdan beri ***ichim qiziydi*** *nima gap ekan deb, – qoshiqni qo'yib so'radi Solijon. – taklif tushdi, – dedi O'lmas* ***gapning po'stkallasiga*** *ko'chib.*

– Yozish qaroriga shuncha tez kelish mumkinmi? – Ha, nima qilasiz o'ylab? ***Oshig'iz olchi*** *bo'ladi keyin, shuni o'ylayapsizmi? Faqat* ***qalovini topib*** *yozish kerak-da.*

– Borgan sari rais jo'shib, ishning ***xamirdan qil sug'urganday*** *kechayotganini ko'rib,* ***og'zi qulog'ida*** *ikkinchi choponni olib, O'lmasga qarab kela boshladi.*

Maskur parchada qo'llangan frazeologik birliklar sotsiopragmatik jihatdan o'rta yosh vakilllarining nutqidan olingan bo'lib, ularning kommunikativ faoliyati bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Ushbu qatlam vakillari jamiyatda faol bo'lganligi bois, ularning nutqida voqelikka nisbatan baholovchi munosabatni ifodalovchi frazeologizmlar faol qo'llanadi. Xususan,

[1] Hakimov M., M.Gaziyeva. Pragmalingvistika asoslari. –Toshkent, 2020. –363 b.
[2] Турсунов У., Мухторов А. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон. – 1992. – 193 b.

parchada uchraydigan **«ichim qiziydi»**, **«gapning po'stkallasi»**, **«xamirdan qil sug'urganday»**, **«oshig'iz olchi bo'ladi»**, **«og'zi qulog'ida»** kabi birliklar ish jarayoniga oid vaziyatlarni baholash, ularga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabat bildirish vazifasini bajaradi.

Bu frazeologizmlar orqali nutq subyekti nafaqat axborot yetkazadi, balki o'zining subyektiv pozitsiyasini ham aniq ifodalaydi. Natijada, mazkur parchadagi frazeologik birliklar o'rta yosh vakillarining nutqiga xos bo'lgan pragmatik, ya'ni ish jarayonidagi voqeliklarga nisbatan tezkor, aniq va baholovchi munosabat bildirish xususiyatini ifodalaydi. Informatik va pragmatik jihatdan esa informema – qahramonning ruhiy holati haqida ma'lumot bergan, pragmema – tinglovchiga hissiy ta'sir o'tkazadi, qahramonning ichki hayajoni va bezovtaligini tasvirlagan. Bu esa frazeologizmlarning nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy-pragmatik ahamiyatini ham yaqqol namoyon etadi.

1-chizma

Frazema	**Informema**(axborot)	**Pragmema**(ta'sir)	**Ustun jihat**
Ichi qizib	Personajning qiziqish va bezovtalik holati	Personajning qiziqish va bezovtalik holatini hissiy-eksoressiv ifodalash	Pragmema
Gapning po'stkallasini aytganda	Asosiy masalaga o'tishni bildiradi	Obrazlilik va nutqiy ta'sirchanlikni kuchaytiradi	Informema

Katta yoshdagi shaxslar nutqida esa an'anaviy paremiologik birliklar – maqol, matal va aforizmlarning ustunligi ko'zga tashlanadi. Bunday birliklar ularning nutqida nafaqat kommunikativ vosita, balki ijtimoiy-madaniy tajriba va kollektiv donishmandlikni ifodalovchi muhim element sifatida xizmat qiladi.

*– Ha, «**qizbola – palaxmon toshi**»*, degan naql rosa topib aytilgan rost gap ekan. O'qib yurib, tanishib, farg'onaligu namanganlik yigitlarga turmushga chiqishdiyamki, ***borgan joylarida tosh qotishdi*** *ular.*

– Sayfi Safoyev yubordi meni. «O'lmasga ayting, indamay ariza yozib ketaversin, o'ziga yaxshi bo'ladi», – dedi. ***Elchiga o'lim yo'q,*** *– kuldi Mahmud Mirzo, – O'lmas, vaziyatni to'g'ri baholang, tushuning, kurashish – befoyda.*

Asardan olingan mazkur maqollar katta yoshdagi shaxslar nutqiga xos bo'lgan quyidagi xususiyatlarni ifodalaydi: an'anaviylik va paremiologik boylikka tayanish, hayotiy tajriba asosida umumlashgan hukm chiqarish, muloqotda didaktik va maslahat beruvchi ohangning ustunligi, kommunikativ vaziyatni yumshatish va ijtimoiy muvozanatni saqlashga intilish. Shu tariqa, ushbu frazeologik birliklar nafaqat semantik mazmunni, balki katta yoshdagi nutq subyektlarining ijtimoiy-pragmatik pozitsiyasi, dunyoqarashi va kommunikativ strategiyasini ham ifodalaydi.

Yoshlar nutqida qo'llanadigan zamonaviy frazeologizmlar shundayki, ular yangicha semantik yuklamaga ega bo'lgan hamda tilning yangicha birliklari faol qo'llanadigan birliklaridir. Bu esa yosh avlodning dinamik ijtimoiy muhitga moslashuvchanligi, global kommunikativ tendensiyalarga ochiqligi hamda lingvistik kreativlikka moyilligi bilan bog'liqdir.

*– **Oydan tushganmisiz** deyman, nima balo?.. – O'lmas norozi qarab qo'yib, mashinasi tomon ildam yurib ketdi podpolkovnik.*

*– O'zingiz boshqarayotgan tashkilotning internetdagi hisob-kitobi bo'yichayam men boshqarayotgan jurnal eng ko'p o'qilayotgan nashr bo'lib turibdi. Bular nima, **havodan olingan gaplarmi**?..* Sotsiopragmatik jihatdan ushbu iboralar yoshlar nutqining quyidagi xususiyatlarini aks ettirishi bilan izohlanadi: yuqori darajadagi emotsionallik va ekspressivlikni ifodalash, kinoya va istehzo orqali tinglovchisiga ta'sir o'tkazish, tezkor va to'g'ridan-to'g'ri kommunikatsiyaga kirishish, muloqotda o'z pozitsiyasini faol himoya qilishga intilish kabi baho semalariga egadir. Shu bois, mazkur frazeologik birliklar yoshlar nutqida nafaqat axborot yetkazish, balki ijtimoiy-psixologik munosabatni ifodalash, baholash va ta'sir o'tkazishning muhim pragmatik vositasi sifatida xizmat qiladi.

Sotsioprgamatik jihatdan frazemalarni gender omil asosida tahlil qilganimizda ayollar nutqida frazeologik birliklar va iboralar qo'llanishini ko'proq ko'rishimiz mumkin. Chunki ayollar muloqotida emotsionallik, ekspressivlik va o'z suhbatdoshiga yaqinlikka intilish nuqtayi nazaridan izohlanadi. Natijada, frazemalar nafaqat axborot uzatish vositasi, balki nutqning ta'sirchanligini oshirish, baholovchi munosabatni ifodalash hamda muloqotning ijtimoiy-pragmatik maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qiluvchi muhim lingvistik birlik sifatida namoyon bo'ladi.

U.Hamdam romanlari tadqiqida shuni ko'rishimiz mumkinki, asar qahramonlari turli kasb egalari bo'lib gavdalanganligi sababli, ko'proq jamiyat bilan bog'liq voqeliklar tasvirlanganligi bois frazemalarni erkaklar muloqotida ham ko'plab kuzatishimiz mumkin. Sotsi-

opragmatik jihatdan asosan ziyoli qatlam nutqida va yoshi katta erkak personajlar muloqotida ko'rishimiz mumkin.

– *Xudo xayrinigizni bersin, og'a, bo'lib-bo'lib shivirlamasdan, borini dasturxonga qo'ying endi! – ovozini ko'tarib tabiatdan dangal O'lmas. – Tishshsh!.. **Devorning ham qulog'i bor,** O'lmas, sekin.* (U. Hamdam. To'rtko'cha, 64-b) Ushbu parchada qo'llangan «*devorning ham qulog'i bor*» iborasi so'zlovchining o'z kasbdoshiga ehtiyot bo'lib gapirishi haqida ogohlantirmoqda va o'zi bajaroytgan vazifada tajribali ekanligini ko'rsatgan.

– *Rozi bo'lib, ishni qonuniy hal qilaman desa ham, qimmatga aylanishi ehtimoli juda katta. Chunki qo'lyozma muhim, hatto o'ta muhim desayam bo'laveradi. Buni u bachchag'ar biladi. Sotvoldiga o'xshagan yosh xodimlar esa imi-jimida **xamirda qil sug'urgandek bajaradi qo'yadi.** Qarabsizki, **six ham kuymaydi, kabob ham.** Siz bilan menga o'xshab biri ikki bo'lmay qarz-havola bilan kunini ko'rib yurgan olim-u fuzalolar ham bahonada uch-to'rt tanga ishlab olishadi...* (U. Hamdam. To'rtko'cha, 65-b)

Ushbu parchada qo'llangan «*xamirdan qil sug'urganday*», «*six ha kuymaydi, kabob ham kuymaydi*» iboralari gapning informatik ma'nosiga qo'shimcha ishni xushyor va hech kimga ozor bermagan holda tez bajarishi haqidagi pragmatik ma'no yuklamoqda.

Xulosa sifatida shuni aytuish mumkinki, XuloXX-til birliklarining pragmalingvistik tabiati ularning nafaqat axborot uzatish, balki kommunikativ maqsad, nutqiy ta'sir va ijtimoiy-madaniy mazmunni ifodalash imkoniyatlari bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, informema va pragmema oppozitsiyasi tilning semantik hamda pragmatik qatlamlari o'rtasidagi munosabatlarni ochib beruvchi muhim nazariy model sifatida namoyon bo'ladi. Informema voqelik haqidagi neytral axborotni yetkazishga xizmat qilsa, pragmema kommunikativ vaziyat, nutq subyekti intensiyasi, adresatga ta'sir ko'rsatish maqsadi va baholovchi munosabatni ifodalovchi birlik sifatida xarakterlanadi. Maqolada shuni ko'rishimiz mumkinki, frazeologik birliklar mazkur oppozitsiyada alohida o'rin egallashini ko'rsatdi. Chunki frazeologizmlar denotativ ma'no bilan bir qatorda kuchli konnotativ, ekspressiv va baholovchi semalarni mujassamlashtiradi. Ular nutqda informativ vazifadan ko'ra ko'proq pragmatik vazifani bajarib, kommunikativ ta'sirchanlikni oshirish, emotsional-ekspressiv munosabatni ifodalash va adresatning idrokiga maqsadli ta'sir ko'rsatishga xizmat qiladi. Shu sababli aksariyat frazeologik birliklar pragmema xususiyatlarini namoyon etuvchi til birliklari sifatida tavsiflanadi. Natijada, informema–pragmema oppozitsiyasida frazeologik birliklar informativ va pragmatik komponentlarning sintezi sifatida namoyon bo'lsa-da, ularning dominant xususiyati pragmatik yo'nalganlik ekanligi aniqlandi. Bu esa frazeologik birliklarni pragmalingvistika nuqtai nazaridan o'rganish tilning antropotsentrik mohiyatini, nutq subyektining kommunikativ niyatlarini hamda milliy-madaniy tafakkurning lingvistik ifodasini chuqurroq anglash imkonini beradi. Mazkur yondashuv frazeologiyaning semantik-pragmatik tabiatini yoritish, til birliklarining kommunikativ potensialini baholash hamda zamonaviy pragmalingvistika nazariyasini rivojlantirishda muhim ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi.

Rezyume. Ushbu maqolada frazeologik birlik va maqollarning tilning informema-pragmema oppozitsiyasi kontekstida roli o'rganiladi. Informema nutqda faktik axborotni yetkazadi, pragmema esa kommunikativ va ijtimoiy funksiyalarni bajaradi. Frazeologik birliklar o'zining ko'chma va turg'un tabiati bilan nutqda pragmatik qatlamni boyitadi.

Resume. This article examines the role of phraseological units (idioms) in the context of the informema–pragmema opposition in language. An informema conveys factual information in speech, whereas a pragmema performs communicative and social functions. Due to their figurative and fixed nature, phraseological units enrich the pragmatic layer of discourse.

Резюме. В данной статье рассматривается роль фразеологических единиц (фразем) в контексте оппозиции информема–прагмема в языке. Информема передаёт фактическую информацию в речи, тогда как прагмема выполняет коммуникативные и социальные функции. Благодаря своей переносной и устойчивой природе фразеологические единицы обогащают прагматический слой дискурса.